

***Tursunova Sayyoraxon Yorqinjon qizi***

*Farg'ona politexnika instituti*

[abubakireldor01@gmail.com](mailto:abubakireldor01@gmail.com) +998907811113

**Annotatsiya:** Paxta muhim qishloq xo'jaligi ekinlaridan bo'lib, to'qimachilik va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Uni etishtirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan navni to'g'ri tanlash va urug'larni ekish vaqtiga bog'liq. Ushbu maqolada biz ekish vaqt va chigitning unib chiqish xususiyatlariga qarab g'o'zaning asosiy navlarini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** G'o'za, chigit, unib chiqish, ekish muddati, nihollar, Farg'ona viloyati, tajriba, tuproq.

G'o'za nihollarining unib chiqishi g'o'zaning biologiyasi, tuproq iqlim sharoitiga, chigit ekish muddatiga bog'liq bo'lib, uning unib chiqishi esa belgilangan nazariy ko'chat qalinligiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bizning tadqiqotlarda chigitning unib chiqishi g'o'za navlarida ekish muddatlariga bog'liq holda aniqlab borildi.

Ma'lumki, chigitni tuproqning tabiiy namligidan oqilona foydalangan holda maqbul muddatda ekish, g'o'zaning qiyg'os unib chiqishi va mo'l-ko'l hosil olish imkonini beradi. Shuningdek, dalada to'liq ko'chat hosil qilish uchun, iqlim sharoitiga mos yerkarni chigit ekishga sifatli tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Chigitning unib chiqishi bo'yicha ilmiy izlanishlar ekish muddatlariga bog'liq holda barcha navlarda o'r ganilib chiqildi.

Farg'ona viloyati sharoitida ekilgan Buxora-8, Sulton va S-8290 g'o'za navlari orasida nihollarining unib chiqishi aniqlanganda shu ayon bo'ldiki, chigitlarning unib chiqishida g'o'za navlari orasidagi farq kuzatildi. Ilmiy izlanishlar olib borilgan g'o'za navlarida nihollarning unib chiqish su'rati bo'yicha

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

olingan ma'lumotlar har 3 kun davom ettirildi. Kuzatuvlarning birinchi ekish muddatida (10.04) Buxora-8, Sulton va S-8290 g'o'za navlari nihollarining unib chiqishi g'o'za navlariga mutanosib ravishda 88-89-1 1% unib chiqqan bo'lsa, unib chiqqan nihollar soni 221-205-210 donaga teng bo'ldi.

Kuzatuvlarning ikkinchi ekish muddatida (15.04) Buxora-8, Sulton va S-8290 g'o'za navlari nihollarining unib chiqishi g'o'za navlariga mutanosib ravishda 92-90-92% unib chiqqan bo'lsa, unib chiqqan nihollar soni 226-230-242 donaga teng bo'ldi.

Uchinchi muddatda (20.04) Buxora-8, Sulton va S-8290 g'o'za navi nihollarining unib chiqishi navlarga mutanosib ravishda 93-94-96% unib chiqqan bo'lsa, unib chiqqan nihollar soni 256-261-273 donaga teng bo'lganligi aniqlandi

### **Buxoro-8 g'o'za navi chigitning unib chiqish surati, Farg'ona 2023 y.**

1-jadval

G'o'za navlari	Ekish	Uyalar soni, %			Unib miqqan nihollar		
		23.04	26.04	29.04	23.04	26.04	29.04
Buxoro-8	10.04.	71	78	88	152	176	221
	15.04	28.04	01.05	04.05	28.04	01.05	04.05
		75	82	92	133	196	226
		03.05	06.05	09.05	03.05	06.05	09.05
	20.04	83	93	93	170	196	256
		04.05	07.05	09.05	04.05	07.05	09.05
	25.04	84	92	97	172	199	259
		10.05	13.05	15.05	10.05	13.05	15.05
	30.04	85	94	96	182	196	266
		14.05	17.05	19.05	14.05	17.05	19.05
	05.05	86	96	97	189	206	271

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Kuzatuvlarning uchinchi ekish muddatida (25.04) Buxora-8, Sulton va S-8290 g‘o‘za navlari nihollarining unib chiqishi g‘o‘za navlariga mutanosib ravishda 97-98-98% unib chiqqan bo‘lsa, unib chiqqan nihollar soni 259-274-283 donaga teng bo‘ldi.

### **Sulton g‘o‘za navi chigitning unib chiqish sur’ati, Fargona 2023 y.**

2-jadval

G‘o‘za navlari	Ekish	Uyalar soni, %			Unib chiqqan nixollar soni,		
		23.04	26.04	29.04	23.04	26.04	29.04
Sulton	10.04.	72	80	89	150	167	205
		28.04	01.05	04.05	28.04	01.05	04.05
	15.04	81	86	90	135	199	230
		03.05	06.05	09.05	03.05	06.05	09.05
	20.04	84	90	94	175	200	261
		04.05	07.05	09.05	04.05	07.05	09.05
	25.04	86	94	98	179	202	274
		10.05	13.05	15.05	10.05	13.05	15.05
	30.04	87	95	97	189	209	273
		14.05	17.05	19.05	14.05	17.05	19.05
	05.05	88	96	98	195	226	285

Shuningdek chigit ekishning beshinchi va oltinchi muddatlarida (25.04 va 05.05) Buxora-8, Sulton va S-8290 go‘za navlari nihollarining unib chiqish g‘o‘za navlariga mutanosib ravishda 96-97-98; 97-98-98% unib chiqqan bo‘lsa, unib chiqqan nihollar soni 266-273-291; 271-285-299 donaga teng bo‘ldi. Chigit ekish muddatlari g‘o‘za navlariga bevosita bog‘liqligi aniqlanib, unib chiqish bo‘yicha

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

eng yuqori ko'rsatkichlar S-8290 g'o'za navida ko'p bo'lganligi aniqlandi.

### **S-8290 g'o'za navi chigitning unib chiqish surati, Farg'ona 2023 y.**

3-jadval

G'o'za navlari	Ekish	Uyalar soni, %			Unib chiqqan nihollar		
		23.04	26.04	29.04	23.04	26.04	29.04
S-8290	10.04.	75	81	91	152	169	210
		28.04	01.05	04.05	28.04	01.05	04.05
	15.04	83	87	92	139	202	242
		03.05	06.05	09.05	03.05	06.05	09.05
	20.04	86	92	96	179	210	273
		04.05	07.05	09.05	04.05	07.05	09.05
	25.04	88	96	98	185	223	283
		10.05	13.05	15.05	10.05	13.05	15.05
	30.04	89	97	98	193	229	291
		14.05	17.05	19.05	14.05	17.05	19.05
	05.05	90	97	98	199	235	299

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Sulton va S-8290 navlari Buxoro-8 g'o'za navlariga nisbatan mos ravishda 1-4 foizgacha ko'proq unib chiqishi anqlandi. Alovida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ekishda g'o'za navlarining to'kisiz chigitni ekilgan bo'lib, erta ekilganlarda unib chiqqan nixollar kasallanishi sababli nixollar sonining kamayishiga olib keldi. Shunday bo'lsada, tajriba olib

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

borish uchun barcha g‘o‘za navlarida ham chigit yetarlicha undirib olinib, to‘liq nihol olishga erishildi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Toshboltayev M. G‘o‘za tuplariga shakl beruvchi mashinaning nazariyasi va hisobi. -Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016. -5 b.
2. Toshboltayev M. G‘o‘za tuplariga shakl berishning afzalliklari // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 1994; №1-3- B. 55.
3. Xoliqov B., Xasanova F., Abdualimov Sh. Avgust-hosilga hosil qo‘shish oyi. // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2012; №8- 4 b.
4. Shayxov E.T., Normuxamedov N, Shleyxer A.I., Azizov Sh.G‘., Lev V.T., Abdurashidova L.X. Paxtachilik. -Toshkent: Mehnat, 1990. -B. 238-295.
5. Yuzbashyan O.Sh., Xamrayev F.X. Kmioviy chilpishning afzalliklari va g‘o‘za hosildorligiga ta’siri 2001. B. 172-173.
6. Yasheva Ye., Gabdurashidov I. G‘o‘zani yotib qolishga chekankanining ta’siri// O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 1987; №7- B. 13.